

Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning "uchinchi sektori"ning asosiy yo'nalishlari

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish. Shuningdek, sataroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyohlik agentliklari va boshqalar kiradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1599,3 mlrd. so'mga oshib, 8850,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 11,6 % ni tashkil etdi.


**Hajmi 1599,3
mlrd. so'mga
oshdi**

**Xizmatlar hajmi
8850,2 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati
111,6 %**

2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 32,0 mingtani tashkil etdi, ulardan 20,4 mingtasining iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan ulushi 63,8 % ga yetdi. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,9 % ga ko'paydi.

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga, ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining aniq miqdoriy ustunligi ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 15,5 mingtasi yoki 76,2 % kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida, iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasi bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 57,6 % ni tashkil etdi. Ularning soni o'tgan yilga nisbatan 2,7 mingtaga ko'payib, o'sish sur'ati 20,8 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan
kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-dekabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (41,5 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,7 % ga teng bo'ldi.


2019-yil 1-dekabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-dekabr holatiga, xizmatlar sohasida 17,6 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari - 39,0 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,3 %, tashish va saqlash - 6,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,6 %, axborot va aloqa - 3,0 %, boshqa turlar - 41,0 % ni tashkil etgan.

2019-yil 1-dekabr holatiga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'rilganda 2,8 mingtaga ko'paydi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar sonini
2018-yilning mos davriga nisbatan ko'payishi
(2019-yil 1-dekabr holatiga, ming birlikda)**



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlar soni 2,7 ming birlikga ko'paydi.


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholi uchun munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichi hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, past sifat va xizmatlarning yetishmasligi, zamonaviy xizmat ko'rsatishning yo'qligi insonlarning yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, yuqori sifat va xizmatlarning turli xilligi odamlarning salomatligi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, bo'sh vaqtni ko'paytirishga yordam beradi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 473,4 ming so'mga oshib, 2865,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 291,7 ming so'mga oshdi.


**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi -
2865,5 ming.so'm**



**O'sish sur'ati -
109,5 %**

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (159,8 %) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,6 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (107,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (105,9 %), hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (105,5%) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rilyotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	8850,2	111,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	449,6	113,6
Moliyaviy xizmatlar	1595,3	159,8
Transport xizmatlari	1959,8	101,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1916,4	101,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	141,7	103,3
Savdo xizmatlari	2817,6	104,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	273,7	107,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	371,9	105,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	146,5	105,5
Ijara xizmatlari	209,1	100,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	215,1	101,3
Shaxsiy xizmatlar	390,9	102,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	69,1	100,9
Boshqa xizmatlar	209,9	102,1

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida moliyaviy va transport xizmatlari, savdo, aloqa va axborotlashtirish kabi xizmatlarning ulushini ortishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi eng katta 31,8 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %**



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, engil konstruksiyali pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Shu bilan birga, eng yuqori ulushlar transport xizmatlari (22,1 %), moliyaviy xizmatlar (18,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,1 %), shaxsiy xizmatlar (4,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,2 %), shuningdek ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (3,1 %), kuzatildi.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatnig iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 31,8 % ni tashkil etib, hajmi 2817,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uchi – 85,2 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 8,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylari uchun
savdo xizmatlari tarkibi, %**



Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 449,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,8 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari 1,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, axborotlashtirish xizmatlari - 0,5 %, boshqa xizmatlar - 0,4 % ni tashkil etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.



2019-yil yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi o'tgan yilining mos davriga nisbatan 75,7 mlrd.so'mga oshib, 371,9 mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;


ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi, hajmi esa 21,0 mlrd. so'mga oshdi va 141,7 mlrd. so'mga yetdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,2 % ulush bilan ustunlik qilmoqda.


2019-yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 146,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida
ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati**



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining o'zni tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-82-63